



UDK:182.2.2.

Maftuna ABBASOVA,
Samdu KF Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
E-mail: maftuna@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

SOG'LOM MA'NAVIY RAQOBATNING IJTIMOYILASHUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada sog'lom ma'naviy raqobatning ijtimoiylashuv jarayonidagi ahamiyati yuzasidan munosabat bildiriladi. Shuningdek, kishilar ma'naviy raqobatiga sabab bo'luvchi ehtiyojlar, shaxs ma'naviy raqobatida ijtimoiy rollarining muhim ahamiyati kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Falsafiy-axloqiy, ma'naviyat, raqobat, ijtimoiylashuv, jarayon, muhit.

ЗНАЧЕНИЕ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ КОНКУРЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение здоровой моральной конкуренции в процессе социализации. Также описываются такие вопросы, как потребности, вызывающие духовную конкуренцию людей, значение социальных ролей в духовной конкуренции человека.

Ключевые слова: Философско-этический, духовность, конкуренция, социализация, процесс, среда.

THE IMPORTANCE OF HEALTHY SPIRITUAL COMPETITION IN THE SOCIALIZATION PROCESS

Annotation

This article discusses the importance of healthy moral competition in the process of socialization. Also, issues such as the needs that cause the spiritual competition of people, the importance of social roles in the spiritual competition of a person are described.

Key words: Philosophical-ethical, spirituality, competition, socialization, process, environment.

Kirish. Ko'proq iqtisodiy sohada qo'llanilayotgan raqobat tushunchasi bugungi globallashuv va ma'naviy ommalashuv davrida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuvda raqobat tushunchasining ijtimoiy ong shakllarini qamrab oluvchi hodisa sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Raqobat jarayoni va hodisasini tahlil qilar ekanmiz raqobatning quyidagi ko'rinishlari bilan tanishib chiqamiz.

Raqobatning turli ko'rinishlari mavjud:

Bellashish.


Kurashish.

Musobaqalashish.

Intilish.

O'z ustida ishlash va hokazolar.

Adabiyotlar tahlili. Nemis klassik falsafasi namoyondasi Fridrix Nitse aytganidek "insonni faqat ikki narsa yo qo'rquv yo manfaat harakatga keltiradi". Demak, bunday shunday analitik xulosa kelib chiqadiki, qo'rquv va manfaat sog'lom hamda nosog'lom ma'naviy raqobatning dinamik, psixologik, pragmatik va ekzistensialistik mohiyatini tashkil etadi.



Shaxs ma'naviy raqobatida ijtimoiy rollar ham muhim ahamiyatga egadir.

Belgilangan ijtimoiy mavqe	Erishilgan ijtimoiy mavqe
Bu shaxsning o'z xizmatlari va doimiy ravishdagi hatti-harakatidan qat'iy nazar, sotsium tomonidan belgilab qo'yiladi. Fatalogik, deterministik ma'noda, taqdirida oldindan yozib yozilgan insonning etnik, ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar	Shaxsning faqatgina o'z xatti-harakati, mehnati, tirishqoqligi, intellektual qobiliyatlari bilan erishgan mavqe tushuniladi. Masalan, san'atkor, korxon boshlig'i, rektor, fan doktori, professor va shu kabilar. Aynan ikkinchi erishilgan ijtimoiy mavqe darajasida qattiq sog'lom hamda nosog'lom ma'naviy raqobatni ko'rishimiz mumkin.


Forobiy "Fozil shahar aholisi qarashlari haqida kitob" asarida hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan rahbarlikka oid fozil podshoga qo'ygan talablari sog'lom ma'naviy raqobatning ahloqiy-falsafiy o'zagini tashkil etuvchi jihatlardir[2]:

1. podshoning mukammal salomatlikka ega bo'lib, o'zining funktsiyalarini oson bajarishi lozim;
fahm-farosatli bo'lishi kerak;
xotirasiyaxshi va kuchli ;
zehnio'tkir, zukko va vaziyatni tezda fahmlaydigan;

fikri tiniq, so'zlari chiroyli, ma'noli;
 bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi va doimo intilish kerak;
 ovqatlanish, shahvat masalalarida o'rtamiyona bo'lib, ya'ni me'yorni bilish lozim;
 haqiqatgo'y, adolatli, to'g'riso'z bo'lishi darkor;
 nomusli, oriyatli, oliyhimmatbo'lishi;
 moddiy boylikka ro'ju qo'yimaslik, ya'ni ko'zi to'q bo'lishi kerak;
 adolatparvar, dovyurak bo'lishi lozim;

doshinmand bo'lishi lozim.

Forobiy qayd etgan bu nozik xislatlar globallashuv davrida sog'lom ma'naviy raqobatni tarbiyalashning muhim tarixiy jihatlarini tashkil etadi.
 Demak, ta'limning bu jihatlarini uzuluksiz ravishda sog'olm ma'naviy raqobat muhitini yaratish uchun, etishib chiqayotgan kadrlar doimiy o'z ustida ishlashi, xorijiy tillarni erikn o'zlashtirishi, axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, mavjud qonunchilikni a'lo darajada bilishi, eng muhimi raqobat madaniyatga ega bo'lishi zarurdir[3].



Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim sohasida ham sog'lom ma'naviy raqobat muhiti ilmiy izlanuvchilik, doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilish, ilmiy unvonlarni qo'lga kiritish bilan belgilanadi. Lekin, ayna shu sohalarda ham ham sog'lom ma'naviy raqobat, ham nosog'lom ma'naviy raqobat muhitini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bir tomondan raqobat madaniyatgi amal qilib halol yo'l bilan iliy daraja va unvonlarni kirituvchilar va turldi xil qing'ir, g'irrom, harom yo'llar orqali bunday natijaga erishuvchi professor o'ituvchilar mavjud. Demak, hozirgi ta'lim tizimininig o'zida ayni paytda ham sog'lom ham nosog'lom ma'naviy raqobat kurashlari davom etmoqda. Lekin falsafadagi miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga olib kelishi qonuniga ko'ra miqdor ko'paysa, sifat oshadi, bunda kadrlar ko'paysa o'lar o'rtasida mehnat bozorida raqobat muhiti kuchayadi va natijada sifatli kadrlar asta-sekin o'zlariga munosib o'rinlarni egallaydilar[4].

Kishilar o'rtasida sog'lom ma'naviy raqobat qo'yidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

Ta'limsohasi
 Ilm-fan vama'daniyatsohasi.
 Ommaviyaxborotvositalari.
 Davlat hokimiyati tizimida
 Nodavlatvajamoat tashkilotlari.
 Fuqarolarningo'zini o'ziboshqarishorganlari.
 Ijodiy birlashmalar
 Ishlab chiqarish va iqtisodiyot
 Sport va san'at.

XXI asrdagi nosog'lom ma'naviy raqobatga ommaviy madaniyatni misol qilish mumkin. Bunda xarom yo'llar bilan ko'proq pul ishlash, tez boyish, qisqa muddatda shon-shuhratga erishish, amoralizmni shior qilish va hokazolar.

Globalashuv jarayoni hayotimizga, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik, ma'naviy tubanlik, tajovuzkorlik, egotsentrizm kabi destruktiv g'oyalar esa nosog'lom ma'naviy raqobat muhitin yuzaga keltirmoqda. Kishilarda ochko'zlik, bir-birin ko'rolmaslik, qo'shinishiga qaraganda balandroq imorat qurish, do'stidan ko'ra boyib ketish, hamkasbidan tezroq mansabga o'tirish, zinokorligi, aroqho'rliqi, maishatparastligi bilan maqtanish kabi jirkanch illatlar aslida nosog'olm ma'naviy raqobatning asosiy jihatlarinidir [5].

Ommaviy madaniyatning har qanday ko'rinishi, behayolik, pornografiya, jangarilik, gotlar, emolar,

gomoseksuallar, transgenlar va boshqalar nosog'lom muhitda raqobatga chorlash, ma'naviy tuban yo'llar bilan bellashishga olib keladi.

Nosog'lom ma'naviy raqobatning ko'rinishlari hozirgi davr globallashuvining oqibatlaritufayli namoyon bo'lmoqda:

Bular:

Ma'naviy tahdidlar;
 O'tkir mafkuraviy ta'sirlarning kengayishi;
 Mafkuraviy tazyiqlar;
 Mafkuraviy va g'oyaviy hurujlar;
 Xatarli tahdidlar;
 Ma'naviy bo'shliqning kuchayishi;
 Axborot xurujlari va dezinformatsiya;
 Axloqiy buzuvchilik va behayolik;
 "Ommaviy madaniyat" va submadaniyat;
 Egotsentrizm va individualizm;
 Ma'naviy negizlarga bepisandlik va nigilizm, marginalizm;

Jismoniy va ruhiy zo'ravonlik.

Demak, falsafiy, qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda sog'lom va nosog'lom ma'naviy raqobat parallel chiziqlar kabi doimo yonma-yon keladi.

Raqobat madaniyati aslida ma'naviy madaniyatning bir shakli va ko'rinishin tashkil etadi. Fikrimizcha, hamma narsa va sohada bo'lganidek raqobatlashishning o'ziga yarasha taribi, qoidasi, ay niqsa madaniyati ham bor deb hisoblaymiz. Raqobat madaniyati raqibni hurmat qilish, unga imkoniyat berish, tolerant bo'lish, yon berishni bilish, uning usullarini inobatga olishdir.

Bundan ko'rinish turibdiki, ma'naviy madaniyat ma'naviy faoliyat natijasi sifatida kelib chiqayotgan hodisalarnigina emas, balki insoniyat yaratgan konstruktiv faoliyat natijasi ifodalash uchun ham xizmat qiladi. [6].

Jamiyatdagi "ishlab chiqazish – taqsimlash – ayirboshlash" zanjirida "iste'molqilish" alohida o'rin tutadi. Bunday prizmada esa sog'lom ma'naviy raqobat muhiti dominat rolini bajaradi.

Ma'naviy qadriyatlar jamiyatda insonlar tomonidan iste'mol qilinmasa edi, ular yaratilishi haqida gap ham bo'lmasdi. Ma'naviy qadriyatlar mavjudligi jamiyat a'zolari, insoniyat tomonidan unga nisbatan talab borligini bildiradi.

Aynan sog'lom ma'naviy raqobat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Kaerda ma'naviy

madaniyat yuqori rivojlangan bo'lsa, o'sha erda kishilar o'rtasida sog'lom ma'naviy raqobat muhiti yuzaga keladi. Bunda, sog'lom ma'naviy raqobat natijasiga esa san'at, ilm-fan, sport, me'morchilik, iqtisodiyot umuman jamiyat taraqqiy etadi.

IX-XII asrlar davomida islom xalifalik tasarrufidagi mamlakatlarda islomiy hamda dunyoviy madaniyatning parallell rivojlanishi natijasida Sharq Uyg'onish davri, ya'ni renessans davrida dunyoviy bilimlar, madaniyatlararo sintez va integratsiya, aniq va tabiiy fanlar progressi; ilmiy izlanishda ratsionalistik-mantiqiy usullardan keng foydalanish, boshqaruvda yuksak gumanizm g'oyalari, falsafavajtimoiy gumanitar fanlarning keng taraqqiy etishi, san'atning yuqori darajaga ko'tarilishi, komusiy xarakterdagi bilimdonlik kabilar jamiyatda dinamik o'sishga olib keldi [7].

Uygonishdavrida "Ilm uylari", "Donishmandlar uyi" haqiqiy ma'naviy, ma'rifiy ilm maskani sifatida butun dunyoga mashhur bo'lib, unda olimlar o'rtasida tom ma'nodagi haqiqiy sog'lom ma'naviy raqobat muhiti shakllangan. Donishmandlar

uyida qolish va u erda obru orttirish uchun olmlar tinimsiz o'z ustlarida ishlo'ab yangi kashfiyotlar, ixtirolar va qonuniyatlarni yaratganlar. Bu davr olimlari olimlik etikasi qoidalariga rioya etib, raqib hisoblangan boshqa olimning sha'ni, qadr-qimmatini ardoqlaganlar. Bellashuv esa fan sohasida kim o'zari ma'nosida bo'lgan. Bu esa ilm-fan taraqqiyotini jadallashtirgan, Renessansning poydevorini yaratgan desak, mubolag'a bo'lmadi.

Xulosa. Shunisi e'tiborga molikki, ikki buyuk alloma Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy yozishmalari (o'zaro falsafiy xatlari)o'rta asr tarixidagi tom ma'nodagi sog'lom ma'naviy raqobat muhiti bo'lganligidan dalolat beradi. Vaholanki, Ibn Sino Arastu ta'limotini yoqlab chiqqan, Beruniy esa Demokrit ta'limotini yoqlab raqiblashganlar. Lekin bunda sof sog'lom ma'naviy raqobatning namoyon bo'lishi tarixiy asarlarda ko'rsatilgan. Bu olimlar o'rtasidagi ilmiy bahs edi xolos. Bir-birini haqoratlash, beobru qilish kabi nosog'lom ma'naviy raqobat ko'rinishlari deyarli kuzatilmagan. Bunday sharoitda albatta ilm-fan ravnaq topadi, jamyait esa, gullab yashnaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abbasova M.S.Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri.Monografiya.Samarqand-2023.8-B.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri O'zbekiston milliy ensiklopediyasm Toshkent 2004
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: "Ma'naviyat", 1996, 6- bet.
4. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. – T.: "O'zbekiston", 2001,9-bet.
5. Negmatova Sh. O'zbekistonda sog'lom raqobatni shakllantirishning ma'naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari.-T.: "Fan", 2016. -105 b.
6. Karimov B.,Ziyaev F. Ma'naviyat asoslari. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2013. – 267 b.
7. Tohir Malik. Saodat saroyining kaliti. –T.: "Yangi asravlodi", 2014 - 146 b.
8. Sayfuddinov R. Ibratlixonadon. –T.: "Movarounnhr", 2013.- 6 b.